Akademik erkinlikka oid ilmiy adabiyotlar soni ortib borayotganiga qaramay, konstitutsiyaviy kafolatlar bilan ularni amaliyotga tatbiq etuvchi institutsional boshqaruv mexanizmlari o'rtasidagi nisbat yetarli darajada tadqiq etilmagan. Shu nuqtayi nazardan, mazkur maqolada akademik erkinlikning konstitutsiyaviy darajada e'tirof etilishi muhim ahamiyat kasb etishi bilan birga, uning amaliy ta'minlanishi konstitutsiyaviy-huquqiy mexanizmlar, oliy ta'lim muassasalarining mustaqilligi hamda akademik faoliyatni tartibga soluvchi boshqaruv tizimlarining uyg'un faoliyatiga bog'liqligi asoslab beriladi.

*Akademik erkinlik tushunchasi*

Akademik erkinlik zamonaviy universitetlarning asosiy belgilaridan biri sifatida uzoq vaqtdan beri e'tirof etib kelinadi. Biroq uning aniq mazmuni va chegaralari hanuz ilmiy munozaralarga sabab bo'lmoqda. Mohiyatiga ko'ra, akademik erkinlik olimlarga davlat, universitet ma'muriyati yoki boshqa tashqi subyektlarning asossiz aralashuvisiz tadqiqot olib borish, dars berish va ilmiy ish natijalarini e'lon qilish imkonini beradi.

Tarixiy jihatdan akademik erkinlikning zamonaviy talqini XIX asr Yevropa universitetlari an'analari, ayniqsa, Gumboldt oliy ta'lim modeli ta'sirida shakllangan. Ushbu ta'limot ta'lim va tadqiqotning uzviy birligini asoslab, universitetni siyosiy hamda diniy nazoratdan xoli mustaqil ilmiy muassasa sifatida talqin qiladi. Mazkur yondashuv doirasida akademik erkinlik nafaqat olimlarning individual huquqi, balki universitetlar avtonomiyasini ta'minlovchi institutsional tamoyil sifatida ham e'tirof etilgan (Nybom, 2003). Keyinchalik ushbu konsepsiya xalqaro miqyosda keng tarqalib, zamonaviy oliy ta'lim tizimining asosiy me'yorlaridan biriga aylandi.

Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda akademik erkinlik bir necha asosiy tarkibiy qismlar orqali tavsiflanadi. Ularga tadqiqot olib borish erkinligi, dars berish va kurs mazmunini belgilash erkinligi, tadqiqot natijalarini nashr etish va tarqatish erkinligi, shuningdek, olimning o'z mutaxassisligi doirasidagi jamoatchilik munozaralari va bahslarida erkin ishtirok etish huquqi kiradi. Ushbu

elementlar xalqaro me'yoriy hujjatlarda ham o'z aksini topgan. Xususan, YUNESKOning 1997-yilda qabul qilingan "Oliy ta'lim sohasidagi pedagog xodimlar maqomi to'g'risida"gi tavsiyasida akademik erkinlik olimlarning institutsional senzura yoki intizomiy bosimdan qo'rqmasdan tadqiqot, ta'lim va jamoatchilik tanqidi bilan shug'ullanish huquqi sifatida belgilangan (UNESCO, 1997).

Akademik erkinlikning ahamiyati keng e'tirof etilayotganiga qaramay, uning chegaralari va ichki mazmuniga oid ilmiy munozaralar davom etmoqda. Asosiy nazariy masalalardan biri shu savol bilan bog'liq: akademik erkinlikni, avvalo, olimlarning individual huquqi sifatida talqin qilish kerakmi yoki uni universitetlarning kollektiv institutsional huquqi sifatida tushunish lozimmi? Ayrim huquqiy an'analarda akademik erkinlik asosan olimning tashqi aralashuvsiz ilmiy izlanish olib borish va o'z g'oyalarini erkin ifoda etish huquqi sifatida ko'riladi. Boshqa yondashuvlarda esa institutsional avtonomiyaga ustuvor ahamiyat berilib, universitetlarning o'zini o'zi boshqarishi, tadqiqot yo'nalishlarini mustaqil belgilashi hamda o'qitishni siyosiy hokimiyatdan mustaqil ravishda tashkil etish qobiliyati alohida ta'kidlanadi (Barendt, 2010).

Yana bir muhim bahs akademik erkinlik va so'z erkinligi o'rtasidagi munosabat bilan bog'liq. Mazkur tushunchalar bir-biriga yaqin bo'lsada, ko'plab tadqiqotchilar ularni aynan bir xil mazmundagi hodisa sifatida baholamaydilar. Akademik erkinlik odatda ilmiy malaka, kasbiy standartlar va universitetlarning boshqaruv mas'uliyatiga asoslangan kasbiy erkinlik sifatida talqin qilinadi. So'z erkinligi esa barcha shaxslarga tegishli umumiy fuqarolik erkinligi hisoblanadi. Robert Postning (2012) ta'kidlashicha, akademik erkinlik universitetlarning o'ziga xos epistemik funksiyasidan kelib chiqadi va shu sababli u cheklanmagan individual ifoda emas, balki bilim ishlab chiqarishni tartibga soluvchi kasbiy me'yorlar bilan bog'liqdir. Shu nuqtayi nazardan, D. Rabban (2024) akademik erkinlik dastlab akademik hamjamiyat ichida kasbiy me'yor sifatida shakllanib, keyinchalik konstitutsiyaviy va qonunchilik darajasida huquqiy tamoyilga aylanganini qayd etadi.

Akademik erkinlikning chegaralari kasbiy mas'uliyat va ilmiy halollik tamoyillari bilan ham belgilanadi. Mazkur erkinlik tadqiqot natijalarini qasddan buzib ko'rsatish yoki o'qitish majburiyatlarini muntazam ravishda bajarmaslik kabi akademik me'yorlarga zid xatti-harakatlarni himoya qilmaydi. Aksincha, u ilmiy xulq-atvorni tartibga soluvchi hamda akademik muassasalarning ishonchliligini ta'minlovchi intizomiy me'yorlar doirasida amal qiladi (Altbach, 2001).

Shu ma'noda, akademik erkinlik bir vaqtning o'zida ham huquq, ham mas'uliyat bo'lib, intellektual mustaqillik va kasbiy javobgarlik o'rtasidagi muvozanatni ifodalaydi.

So'nggi yillardagi munozaralar akademik erkinlikning zamonaviy oliy ta'lim tizimlaridagi murakkab tabiatini yanada yaqqolroq namoyon qilmoqda. Tadqiqotchilar ta'kidlashicha, akademik erkinlik faqat mavhum huquqiy tamoyil emas, balki akademik hamjamiyat faoliyatida shakllangan ijtimoiy-amaliy tizim hamdir. Bu universitetlar davlat tartibga solishi, bozor bosimi va ichki boshqaruv mexanizmlari ta'sirida faoliyat yuritishini anglatadi. Shunday institutsional sharoitlar akademik erkinlikning amaliyotda qanday qo'llanishi va himoya qilinishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi (Olssen & Peters, 2005).

Empirik tadqiqotlar shuni ham ko'rsatadiki, oliy ta'lim muassasalarida akademik erkinlikni tushunish professor-o'qituvchilar, ma'muriyat va talabalar o'rtasida bir xil emas. Bu boradagi izlanishlarda institutsional avtonomiyaga urg'u beruvchi qarashlardan tortib, individual ilmiy malaka va etik mas'uliyatga e'tibor qaratadigan yondashuvlargacha bo'lgan turli talqinlar aniqlangan (Ramlo, 2025).

Mazkur farqlar akademik erkinlik qat'iy chegaralangan tushuncha emasligini, aksincha, u boshqaruv tizimlari va siyosiy muhit ta'sirida shakllanib boruvchi me'yoriy hodisa ekanini ko'rsatadi.

Shunday qilib, akademik erkinlik individual va institutsional o'lchamlarga ega bo'lgan murakkab tushuncha hisoblanadi. Uning amaliy mazmuni huquqiy normalar, kasbiy standartlar va institutsional sharoitlarning o'zaro ta'siri natijasida shakllanadi. Mazkur yondashuv maqolaning keyingi qismlarida akademik erkinlikning konstitutsiyaviy himoyasi hamda uni samarali amalga oshirish uchun zarur institutsional shart-sharoitlarni tahlil qilishga nazariy asos vazifasini bajaradi.

*Akademik erkinlikning konstitutsiyaviy himoyasi*

So'nggi o'n yilliklarda akademik erkinlikni konstitutsiyaviy va xalqaro-huquqiy hujjatlar darajasida himoya qilish amaliyoti kengayib bormoqda. Tarixiy jihatdan akademik erkinlik dastlab universitetlar ichidagi kasbiy me'yor sifatida shakllangan bo'lsa-da, bugungi kunda ko'plab zamonaviy konstitutsiyaviy tizimlar ilmiy tadqiqot va o'qitish erkinligini fundamental huquqiy tamoyil sifatida e'tirof etadi. Bu jarayon bilim ishlab chiqarishning avtonomligi demokratik jamiyat va ilm-fan taraqqiyoti uchun muhim ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi (Ginsburg, 2025). So'nggi tahlillarga ko'ra, amaldagi konstitutsiyalarning yarmidan ortig'ida ilmiy tadqiqot erkinligi, universitet avtonomiyasi yoki olimlarning erkin izlanish olib borish huquqlarini bevosita yoxud bilvosita himoya qiluvchi normalar mavjud. Bunday normalar ko'pincha so'z erkinligi, madaniy huquqlar yoki ilmiy izlanish erkinligining kengroq kafolatlari doirasida mustahkamlanadi. Masalan, Yevropa Ittifoqining Asosiy huquqlar xartiyasi 13-moddasida (European Union, 2012) "san'at va ilmiy tadqiqotlar cheklanmasdan amalga oshirilishi va akademik erkinlik hurmat qilinishi" lozimligi bevosita belgilangan. Mazkur yondashuv akademik erkinlikning Yevropa konstitutsiyaviy an'anasida muhim huquqiy va demokratik qadriyat sifatida qaralayotganini ko'rsatadi.

Germaniya akademik erkinlikning konstitutsiyaviy himoyasi eng rivojlangan davlatlardan biri hisoblanadi. Germaniya Federativ Respublikasi Asosiy qonunining 5(3)-moddasida "san'at va fan, tadqiqot va ta'lim erkindir" deb belgilangan. Germaniya konstitutsiyaviy yurisprudensiyasi ushbu normani keng talqin qilib, ham olimlarning individual ilmiy erkinligini, ham universitetlarning institutsional avtonomiyasini e'tirof etadi. Akademik erkinlikning buzilishiga oid nizolar ma'muriy sudlar orqali ko'rib chiqiladi va mazkur sudlar universitetlar avtonomiyasini himoya qilish hamda olimlarni asossiz aralashuvlardan muhofaza etishda muhim rol o'ynaydi (Ginsburg, 2025).

Shu bilan birga, turli huquqiy tizimlarda akademik erkinlikning konstitutsiyaviy talqini bir xil emas. Ayrim davlatlarda konstitutsiyaviy normalar, avvalo, universitetlarning institutsional avtonomiyasiga, ya'ni akademik qarorlarni mustaqil qabul qilish imkoniyatiga urg'u beradi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 51-moddasiga ko'ra, oliy ta'lim tashkilotlari akademik erkinlik, o'zini o'zi boshqarish, tadqiqotlar o'tkazish va o'qitish erkinligi huquqiga ega (Republic of Uzbekistan, 2023). Mazkur yondashuv akademik erkinlikni asosan oliy ta'lim muassasalariga tegishli kollektiv huquq sifatida shakllantiradi. Boshqa davlatlarda esa akademik erkinlik ko'proq olimlarning senzura yoki intizomiy bosimdan xoli holda tadqiqot olib borishi va o'z qarashlarini erkin ifoda etishi bilan bog'lanadi. Bu farqlar universitet, davlat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarning turli huquqiy tizimlarda qanday talqin qilinishini aks ettiradi.

AQSH esa akademik erkinlikning konstitutsiyaviy himoyasi bo'yicha o'ziga xos modelni namoyon qiladi. AQSH Konstitutsiyasida akademik erkinlik, ilmiy tadqiqot erkinligi yoki ta'lim huquqini bevosita himoya qiluvchi alohida norma mavjud emas. Asosiy qonun Kongressga intellektual mulk orqali "fan va foydali san'at taraqqiyotini rag'batlantirish" vakolatini berish bilan cheklanadi, oliy ta'lim va tadqiqot boshqaruvi esa asosan shtatlar hamda xususiy muassasalar ixtiyorida qoladi. Shunga qaramay, AQSHda akademik erkinlik dastlab Amerika universitet professorlari assotsiatsiyasi (AAUP) tomonidan ishlab chiqilgan kasbiy me'yorlar tizimi sifatida shakllanib, keyinchalik sud amaliyoti orqali Birinchi tuzatish doirasidagi so'z erkinligi himoyasi bilan bog'landi. Xususan, 1915-yildagi Akademik erkinlik va lavozim turg'unligi tamoyillari deklaratsiyasi hamda 1940-yildagi Akademik erkinlik va lavozim turg'unligi to'g'risidagi bayonot Amerika oliy ta'lim tizimida muhim mezon hujjatlariga aylangan va ko'plab universitetlarning ichki qoidalariga kiritilgan (Ginsburg, 2025).

AQSH sud amaliyotida akademik erkinlikning huquqiy mazmuni hanuz to'liq aniqlashtirilmagan. Masalan, *Garcetti v. Ceballos* (2006) ishida Oliy sud davlat xizmatchilarining xizmat vazifalari doirasidagi nutqi Birinchi tuzatish himoyasiga to'liq kirmasligini qayd etdi, biroq mazkur yondashuvning akademik faoliyatga tatbiq etilishi masalasini ochiq qoldirdi. Quyi sudlar esa odatda *Connick–Pickering* testini qo'llab, jamoatchilik ahamiyatiga ega masalalarda davlat xizmatchilarining so'z erkinligini himoya qiladi. Shu bilan birga, ayrim shtatlar darajasida qo'shimcha kafo-

latlar ham shakllangan. Jumladan, Kaliforniyaning *Leonard Law* qonuni soʻz erkinligi kafolatlarini xususiy universitetlarga ham tatbiq etsa, Kaliforniya Konstitutsiyasi shtat universitetlarini avtonom subyektlar sifatida tan oladi.

"Konstitutsiyaviy sukut" va "konstitutsiyaviy e'tirof" oʻrtasidagi qarama-qarshilik akademik erkinlikning qiyosiy tadqiqotidagi muhim paradokslardan birini namoyon qiladi. Bir tomondan, konstitutsiyaviy kafolatlar akademik erkinlikning huquqiy tizimdagi ahamiyatini ramziy va normativ jihatdan tasdiqlaydi. Ikkinchi tomondan esa bunday kafolatlarning amaliy samaradorligi sud himoyasi mexanizmlari, universitet boshqaruvi va siyosiy muhit kabi qoʻshimcha institutsional omillarga bogʻliq boʻladi. Shu sababli konstitutsiyaviy normaning mavjudligi har doim ham akademik erkinlikning amalda samarali himoyalanishini anglatmaydi.

Bu holat soʻnggi qiyosiy tadqiqotlarda ham tasdiqlanmoqda. Akademik erkinlik konstitutsiyaviy yoki qonunchilik darajasida rasmiy himoya qilingan davlatlarda ham siyosiy bosim, menejerlikka xos boshqaruv modellari va iqtisodiy cheklovlar olimlar hamda tadqiqot muassasalari faoliyatiga sezilarli ta'sir koʻrsatishi mumkin. Bundan tashqari, Ginsburg (2025) ta'kidlaganidek, akademik erkinlikka tahdidlar faqat davlatning "yuqoridan pastga" aralashuvi bilan cheklanmaydi. Ijtimoiy tarmoqlar orqali kuchaygan ayrim fuqarolik guruhlari ham akademik faoliyatga "quyidan yuqoriga" yoʻnalishida bosim oʻtkazishi mumkin. Bunday ikki tomonlama bosim akademik erkinlik chuqur kasbiy me'yor sifatida shakllangan tizimlarda ham institutsional barqarorlikni murakkablashtiradi.

*Demak, konstitutsiyaviy normalar akademik erkinlik uchun muhim huquqiy asos yaratadi, biroq ularning amaliy ta'siri institutsional muhit, sud amaliyoti va akademik hamjamiyat ichidagi kasbiy me'yorlar bilan chambarchas bogʻliq.* Shu bois maqolaning keyingi qismida aynan akademik erkinlikning institutsional kafolatlari va ularning amaliy ahamiyati tahlil qilinadi.

*Institutsional kafolatlar va akademik erkinlikning amaliy ta'minlanishi*

Konstitutsiyaviy va qonunchilik kafolatlari akademik erkinlikning muhim huquqiy asosini tashkil etadi. Biroq bu kafolatlarning amaliy samaradorligi koʻp jihatdan universitetlar faoliyat yuritadigan institutsional muhitga bogʻliq. Akademik erkinlik huquqiy vakuumda mavjud boʻla olmaydi; u tadqiqot, oʻqitish va ilmiy aloqalarni shakllantiruvchi murakkab boshqaruv tizimlari doirasida amalga oshadi. Shu sababli akademik erkinlikning amalda qay darajada himoyalanishi universitet boshqaruvi, moliyalashtirish modellari, ma'muriy nazorat hamda akademik hamjamiyat ichidagi kasbiy me'yorlar bilan chambarchas bogʻliqdir (Olssen & Peters, 2005).

Bu holatning empirik ahamiyati soʻnggi xalqaro tadqiqotlarda ham tasdiqlanmoqda. Xususan, 2026-yilda e'lon qilingan Akademik erkinlik indeksi (*Academic Freedom Index*) hisobotida (Kinzelbach et al., 2026) institutsional avtonomiya akademik erkinlikning boshqa tarkibiy unsurlarini, jumladan, tadqiqot va oʻqitish erkinligini himoya qiluvchi asosiy mexanizm sifatida baholanadi. Hisobot ma'lumotlariga koʻra, institutsional avtonomiya yuqori darajada ta'minlangan davlatlarda tadqiqot va dars berish erkinligi ham yuqori darajada himoyalanadi. Aksincha, institutsional avtonomiya zaiflashgan mamlakatlarda akademik erkinlikning boshqa jihatlari ham bosim ostida qoladi. Bu holat Chexiya, Estoniya, Shvetsiya, Belgiya, Sloveniya, Irlandiya, Avstriya va Latviya kabi yuqori reytingli davlatlar tajribasida yaqqol namoyon boʻladi. Mazkur mamlakatlarda konstitutsiyaviy va qonuniy normalar universitet avtonomiyasi, kafolatlangan akademik lavozim turgʻunligi (*tenure*) hamda akademik oʻzini oʻzi boshqarish mexanizmlari bilan uygʻun holda amal qiladi.

AQSH tajribasi bu borada alohida e'tiborga loyiq, chunki u "konstitutsiyaviy sukut – institutsional kuch" modelining klassik namunasi hisoblanadi. AQSH Konstitutsiyasida akademik erkinlikni bevosita himoya qiluvchi norma mavjud boʻlmasa-da, ushbu erkinlik uzoq yillar davomida bir qator institutsional mexanizmlar orqali amalda ta'minlanib kelgan. Bular qatoriga *Amerika Universitet professorlari assotsiatsiyasi (AAUP)* tomonidan ishlab chiqilgan kasbiy me'yorlar, akademik lavozim turgʻunligi (*tenure*) instituti, fakultet senatlari orqali amalga oshiriladigan akademik oʻzini oʻzi boshqarish, Birinchi tuzatish boʻyicha shakllangan sud amaliyoti hamda federal va xususiy jamgʻarmalarning raqobatbardosh tadqiqot moliyalashtirish modeli kiradi. Aynan shu institutsional infratuzilma AQSH universitet-

larining xalqaro reytinglarda yetakchi mavqega chiqishiga xizmat qilgan va akademik erkinlik konstitutsiyaviy matnsiz ham samarali ta'minlanishi mumkinligini koʻrsatgan.

Shu bilan birga, AQSH tajribasi mazkur modelning zaif jihatlarini ham namoyon etmoqda. Akademik erkinlik indeksi ma'lumotlariga koʻra, AQSHdagi institutsional avtonomiya 2015–2025-yillar oraligʻida sezilarli pasaygan va "toʻliq avtonomiya" toifasidan "oʻrtacha avtonomiya" darajasiga tushgan (Kinzelbach et al., 2026). Bu holat federal tadqiqot moliyalashtirishidan siyosiy ta'sir vositasi sifatida foydalanish, shtatlar darajasidagi qonunchilik aralashuvi hamda ijtimoiy tarmoqlar orqali shakllanayotgan jamoatchilik bosimi bilan izohlanadi. Shunga qaramay, AQSH universitet tizimi tarixan shakllangan institutsional infratuzilma – *tenure* tizimi, akademik oʻzini oʻzi boshqarish an'analari, sud amaliyoti va kasbiy assotsiatsiyalarning kuchli mavqeyi tufayli xalqaro miqyosdagi yetakchi oʻrnini koʻp jihatdan saqlab qolmoqda. AQSH tajribasi shuni koʻrsatadiki, institutsional kafolatlar akademik erkinlikni konstitutsiyaviy normalarsiz ham samarali himoya qila oladi, biroq siyosiy bosim kuchaygan sharoitda bunday model qoʻshimcha huquqiy himoyaga ehtiyoj sezishi mumkin.

Yangi Zelandiya tajribasi esa ushbu masalaga boshqa nuqtayi nazardan yondashish imkonini beradi. Mazkur davlat IHTT mamlakatlari orasida akademik erkinlikni eng batafsil tartibga solgan qonunchilik tizimlaridan biriga ega boʻlib, unda tadqiqot, oʻqitish va institutsional avtonomiya erkinliklari bevosita kafolatlangan. Shunga qaramay, mamlakat akademik tizimida muntazam ravishda akademik ifoda erkinligi bilan bogʻliq munozaralar yuzaga kelmoqda. Tadqiqotchilar bu holatni akademik erkinlikning qonuniy ta'rifi mavjud boʻlgan taqdirda ham, uning amaliy chegaralari, universitet ma'muriyati va olim oʻrtasidagi munosabatlar hamda akademik mutaxassislik bilan shaxsiy fikr bildirish oʻrtasidagi tafovutlar turli institutsional ziddiyatlarni keltirib chiqarishi mumkinligi bilan izohlaydilar.

Yuqoridagi misollar institutsional shart-sharoitlar akademik erkinlikni ta'minlashda konstitutsiyaviy normalardan kam ahamiyat kasb etmasligini koʻrsatadi. Akademik erkinlikni amalda himoya qiluvchi asosiy institutsional omillar qatoriga quyidagilar kiradi: universitetlarning oʻzini oʻzi boshqarish huquqi, ya'ni tadqiqot yoʻnalishlari, oʻquv dasturlari va xodimlar tanlovini siyosiy hokimiyatdan mustaqil ravishda belgilash imkoniyati; akademik lavozim turgʻunligini kafolatlovchi mehnat-huquqiy mexanizmlar; akademik hamjamiyat ichida shakllangan kasbiy me'yorlar – ilmiy halollik, *peer review* va intizomiy javobgarlik tamoyillari; raqobatbardosh va plyuralistik tadqiqot moliyalashtirish tizimi; shuningdek, universitet avtonomiyasini himoya qiluvchi sud amaliyoti.

Iqtisodiy va boshqaruv omillari ham akademik erkinlikning institutsional muhitida muhim oʻrin tutadi. Soʻnggi oʻn yilliklarda koʻplab oliy ta'lim tizimlarida amalga oshirilgan bozor yoʻnalishidagi islohotlar universitetlarni raqobatbardosh moliyalashtirish sharoitida faoliyat yurituvchi murakkab tashkilotlarga aylantirdi. Bunday islohotlar odatda samaradorlik, hisobdorlik va natijadorlikka urgʻu beruvchi menejerlikka xos amaliyotlarni joriy etadi. Bu yondashuv ma'muriy boshqaruvni kuchaytirishi mumkin, biroq ayni paytda olimlarning tadqiqot yoʻnalishlarini tanlashi va jamoatchilik munozaralarida ishtirok etishi uchun mavjud sharoitlarga ham ta'sir koʻrsatadi.

Bunday institutsional muhitda akademik erkinlik kasbiy mas'uliyat bilan uygʻun holda tushunilishi lozim. Akademik erkinlik olimlarning bahsli gʻoyalarni ilgari surish va mavjud bilimlarni qayta koʻrib chiqish huquqini nazarda tutadi. Biroq koʻplab tadqiqotchilar ta'kidlaganidek, ushbu erkinlik ilmiy halollik, kasbiy malaka va yetuk mas'uliyat talablari bilan muvozanatda boʻlishi kerak. Shu sababli akademik erkinlik haqidagi munozaralar koʻpincha akademik ifodaning kasbiy mutaxassislik doirasiga kirishi yoki ilmiy vakolatdan tashqaridagi shaxsiy fikr sifatida namoyon boʻlishi bilan bogʻliq masalalar atrofida shakllanadi (Ramlo, 2025).

Shunday qilib, akademik erkinlikning amaliy ta'minlanishi faqat konstitutsiyaviy normalar bilan emas, balki universitet avtonomiyasi, akademik lavozim kafolatlari, kasbiy me'yorlar va plyuralistik moliyalashtirish tizimidan iborat institutsional infratuzilma bilan ham bogʻliqdir. Aynan shu shart-sharoitlarning rivojlanish darajasi akademik erkinlikning amaliyotda qanchalik samarali amalga oshirilishini belgilaydi. Shu bois maqolaning keyingi qismida ushbu institutsional omillarning post-sovet oliy ta'lim tizimlarida,

jumladan, Oʻzbekiston misolida qanday shakllanayotgani tahlil qilinadi.

*Oʻzbekiston va mintaqaviy tajribada akademik erkinlikning institutsional xususiyatlari*

Konstitutsiyaviy kafolatlar va akademik erkinlikning amaliy ta'minlanishi oʻrtasidagi bogʻliqlik Oʻzbekiston va unga yaqin mintaqaviy tajribalar misolida yanada yaqqol namoyon boʻladi. Sobiq ittifoq hududidagi koʻplab davlatlarda universitetlar hanuz markazlashgan boshqaruv, iyerarxik akademik madaniyat va cheklangan institutsional avtonomiya sharoitida faoliyat yuritmoqda. Natijada akademik erkinlik huquqiy jihatdan tan olingan boʻlsa-da, uni amalda ta'minlovchi institutsional mexanizmlar koʻp hollarda toʻliq shakllanmagan.

Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, akademik erkinlik faqat individual huquq sifatida emas, balki universitetlarning oʻzini oʻzi boshqarish tamoyili bilan ham uzviy bogʻliqdir. Yevropa konstitutsiyaviy tizimlarida universitet avtonomiyasi demokratik boshqaruvning tarkibiy elementi sifatida talqin qilinadi hamda ilmiy izlanish erkinligi va bilim ishlab chiqarishning nomarkazlashuvi bilan chambarchas bogʻlanadi. Mintaqaning ayrim davlatlarida esa "universitet avtonomiyasi" tushunchasi qonunchilikda rasman e'tirof etilgan boʻlsa-da, chinakam akademik oʻzini oʻzi boshqarish uchun zarur institutsional mexanizmlar hali yetarli darajada shakllanmagan.

Mazkur holatning ildizlari uzoq yillar davomida shakllangan markazlashgan akademik boshqaruv modeliga borib taqaladi. Ilmiy tadqiqotlar va ta'lim jarayonining yuqoridan boshqarilishi, akademik qarorlarning ma'muriy nazorat asosida qabul qilinishi hamda mafkuraviy uygʻunlikka ustuvor ahamiyat berilishi universitetlarning institutsional rivojlanishiga uzoq muddatli ta'sir koʻrsatgan. Garchi koʻplab davlatlar 1990-yillardan boshlab universitet avtonomiyasi va akademik erkinlik tamoyillarini rasman qabul qilgan boʻlsa-da, tarixiy boshqaruv madaniyatining ayrim elementlari bugungi kunda ham saqlanib qolmoqda.

Shu bilan birga, mintaqadagi barcha davlatlar tajribasi bir xil emas. Masalan, Estoniya akademik erkinlik boʻyicha xalqaro indekslarda yuqori natijalarni qayd etayotgan davlatlardan biri hisoblanadi. Estoniya Konstitutsiyasining 38-moddasida (Republic of Estonia, 1992) ilmiy izlanish va oʻqitish erkinligi hamda universitetlar avtonomiyasi bevosita mustahkamlangan. Eng muhimi, mazkur konstitutsiyaviy norma universitetlar avtonomiyasi, raqobatbardosh tadqiqot moliyalashtirish tizimi va Yevropa akademik makoniga integratsiya bilan uygʻun holda rivojlantirilgan. Bu tajriba tarixiy merosning oʻzi akademik erkinlikni avtomatik ravishda cheklamasligini, hal qiluvchi omil institutsional islohotlarning chuqurligi va izchilligi ekanini koʻrsatadi.

Oʻzbekiston tajribasi esa murakkab va koʻp qatlamli dinamikani namoyon qiladi. Bir tomondan, 2017-yildan boshlab oliy ta'lim tizimida muhim islohotlar amalga oshirildi: universitetlar soni va doktorantura imkoniyatlari kengaytirildi, xalqaro hamkorlik dasturlari rivojlantirildi, ayrim oliy ta'lim muassasalariga tashkiliy-iqtisodiy avtonomiya berildi hamda 2023-yilgi Konstitutsiyaning 51-moddasida (Republic of Uzbekistan, 2023) akademik erkinlik bevosita kafolatlandi. Bu oʻzgarishlar oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish va xalqaro standartlarga yaqinlashtirish yoʻlidagi muhim qadamlar boʻldi.

Boshqa tomondan, akademik erkinlikning amaliy ta'minlanishi uchun zarur boʻlgan ayrim institutsional mexanizmlar hali shakllanish bosqichida qolmoqda. Jumladan, ilmiy tadqiqotlar va doktorantura tizimining boshqaruvi sezilarli darajada markazlashgan boʻlib, doktorlik darajalari va ilmiy unvonlar Oliy attestatsiya komissiyasi (OAK) tomonidan tartibga solinadi. Dissertatsiya mavzularini tasdiqlash, himoya tartiblari va nashriyot talablarining markazlashgan boshqaruvi tarixan shakllangan akademik boshqaruv modelining davom etayotganini koʻrsatadi (Gʻoziyev, 2025). Mazkur institutsional sharoitlar ayrim akademik etika muammolarining yuzaga kelishiga ham ta'sir koʻrsatmoqda. Xususan, doktorlik himoyasi uchun majburiy nashriyot talablarining kuchayishi predator nashriyotlar va ilmiy ishlarni tijorat asosida tayyorlash amaliyotining kengayishi bilan bogʻlanmoqda. Ayrim hollarda tadqiqotchilar sifatli ilmiy hissa qoʻshishdan koʻra, formal nashriyot talablarini bajarishga yoʻnaltirilgan strategik xulq-atvorga moyil boʻlib qolmoqda. Bu esa akademik kvalifikatsiya tizimining rasmiy mezonlari bilan tadqiqot sifati oʻrtasida tafovut paydo boʻlishiga olib kelishi mumkin (Aslonova, 2025).

Bundan tashqari, doktoranturani tashkil etish modeli ham muhim ahamiyatga ega. An'anaviy "ustoz-shogird" modeli bir tomondan kuchli akademik an'ana sifatida namoyon boʻlsa, boshqa tomondan doktorantlarning turli ilmiy maktablar va zamonaviy metodologiyalar bilan tanishish imkoniyatlarini cheklashi mumkin. Ayrim hollarda bu holat ilmiy tadqiqot salohiyatining tarkibiy zaifliklarini davom ettirish xavfini yuzaga keltiradi.

Yuqoridagi kuzatishlar Oʻzbekiston akademik tizimidagi asosiy tarkibiy ziddiyatni koʻrsatadi. Bir tomondan, akademik erkinlikning konstitutsiyaviy darajada e'tirof etilishi va oliy ta'lim sohasidagi islohotlar mamlakat akademik tizimini xalqaro standartlarga yaqinlashtirishga xizmat qilmoqda. Ikkinchi tomondan, akademik erkinlikning amaliy ta'minlanishi uchun zarur boʻlgan institutsional ekotizim, ya'ni nomarkazlashgan ilmiy boshqaruv, mustaqil tadqiqot moliyalashtirish tizimi, kuchli kasbiy assotsiatsiyalar va himoyalangan akademik mansab kafolatlari hali toʻliq shakllanmagan.

Demak, Oʻzbekiston va mintaqadagi tajriba akademik erkinlikning konstitutsiyaviy darajada e'tirof etilishi muhim qadam ekanini tasdiqlaydi. Biroq akademik erkinlikning real va barqaror ta'minlanishi universitet avtonomiyasi, mustaqil ilmiy hamjamiyat, plyuralistik moliyalashtirish va akademik oʻzini oʻzi boshqarish kabi institutsional shart-sharoitlarning rivojlanishi bilan bevosita bogʻliqdir.

**Xulosa**

Akademik erkinlik zamonaviy oliy ta'lim tizimining fundamental tamoyillaridan biri boʻlib, uning samarali ta'minlanishi faqatgina konstitutsiyaviy-huquqiy kafolatlar emas, institutsional shart-sharoitlarning rivojlanganlik darajasiga ham bogʻliqdir. Yuqoridagi qiyosiy tahlillar shuni koʻrsatdiki, akademik erkinlikning konstitutsiyaviy darajada e'tirof etilishi muhim huquqiy asos yaratadi, biroq bu holat uning amaliyotda toʻliq ta'minlanishini kafolatlamaydi.

Birinchidan, akademik erkinlikning samarali himoyasi universitetlarning haqiqiy institutsional avtonomiyasi bilan chambarchas bogʻliqdir. Qiyosiy tajriba shuni koʻrsatadiki, ilmiy va akademik qarorlarni mustaqil qabul qilish imkoniyati mavjud boʻlmagan tizimlarda konstitutsiyaviy kafolatlarning amaliy ta'siri cheklangan boʻlib qoladi.

Ikkinchidan, akademik erkinlik faqat individual huquq emas, balki kompleks institutsional tamoyil sifatida tushunilishi lozim. Universitet avtonomiyasi, akademik lavozim kafolatlari, kasbiy me'yorlar, ilmiy halollik va tadqiqotni mustaqil moliyalashtirish tizimi akademik erkinlikning amaliy mazmunini shakllantiruvchi oʻzaro bogʻliq omillardir.

Uchinchidan, Oʻzbekiston tajribasi akademik erkinlikni rivojlantirish jarayoni huquqiy islohotlar bilan bir qatorda institutsional transformatsiyani ham talab qilishini koʻrsatmoqda. Soʻnggi yillarda oliy ta'lim tizimida amalga oshirilgan islohotlar va Konstitutsiyada akademik erkinlikning mustahkamlanishi muhim qadam boʻldi. Shu bilan birga, doktorantura va ilmiy tadqiqotlar boshqaruvining markazlashgan modeli, nashriyot bosimi hamda akademik etika bilan bogʻliq ayrim muammolar institutsional mexanizmlarni yanada takomillashtirish zarurligini koʻrsatadi.

Toʻrtinchidan, akademik erkinlikni mustahkamlash uchun doktorantura va ilmiy tadqiqotlar boshqaruvini bosqichma-bosqich nomarkazlashtirish, universitetlarning akademik qarorlar qabul qilishdagi mustaqilligini kengaytirish, sifatga yoʻnaltirilgan akademik baholash tizimini rivojlantirish hamda akademik etika va ilmiy halollikning kasbiy mexanizmlarini kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, raqobatbardosh va plyuralistik tadqiqot moliyalashtirish tizimini rivojlantirish akademik mustaqillikni kuchaytirishga xizmat qilishi mumkin.

Demak, akademik erkinlikning real va barqaror ta'minlanishi konstitutsiyaviy normalarning mavjudligi bilangina emas, universitet avtonomiyasi, mustaqil akademik hamjamiyat va funksional institutsional infratuzilmaning rivojlanganlik darajasi bilan belgilanadi. Shu sababli akademik erkinlikni mustahkamlash boʻyicha kelajakdagi islohotlar huquqiy kafolatlarni kengaytirish bilan bir qatorda, ularni amalda qoʻllashga xizmat qiluvchi institutsional mexanizmlarni rivojlantirishga ham qaratilishi lozim.

## REFERENCES

Altbach, P. G. (2001). Academic freedom: International realities and challenges. *Higher Education, 41*(1-2), 205–219.

Aslonova, L. (2025). *Ilmiy ijod erkinligining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari [Constitutional and legal foundations of freedom of scientific creativity]* (Doctoral dissertation). Tashkent State University of Law.

Barendt, E. (2010). *Academic freedom and the law: A comparative study*. Oxford University Press.

European Union. (2012). *Charter of Fundamental Rights of the European Union*.

G'oziyev, K. (2025). *Oliy ta'lim tashkilotlari faoliyatini tartibga solishning ma'muriy-huquqiy jihatlari [Administrative and legal aspects of regulating the activities of higher education institutions]*. TSUL Publ.

*Garcetti v. Ceballos*, 547 U.S. 410 (2006). https://supreme.justia.com/cases/federal/us/547/410/

Ginsburg, T. (2025). The American attack on academic freedom in comparative perspective. *Journal of Legal Education, 74*(1), 34–52.

Gorsky-Mochalov, V. L. (2022). Constitutional foundations of university autonomy: European practice and Russian context. *Legal Science, 7*, 164–167.

Karran, T. (2009). Academic freedom in Europe: Reviewing UNESCO's recommendation. *Higher Education Policy, 22*(2), 191–215.

Kinzelbach, K., Lindberg, S. I., Pelke, L., & Spannagel, J. (2026). *Academic freedom index 2026 update*. Friedrich-Alexander-Universität Erlangen-Nürnberg & V-Dem Institute.

Naepi, S. (2025). Academic freedom and its limits in contemporary universities: The New Zealand case. *Higher Education Policy, 38*(1), 1–19.

Nybom, T. (2003). The Humboldt legacy: Reflections on the past, present, and future of the European university. *Higher Education Policy, 16*(2), 141–159.

Olssen, M., & Peters, M. A. (2005). Neoliberalism, higher education and the knowledge economy: From the free market to knowledge capitalism. *Journal of Education Policy, 20*(3), 313–345.

Post, R. C. (2012). *Democracy, expertise, and academic freedom: A First Amendment jurisprudence for the modern state*. Yale University Press.

Rabban, D. M. (2024). *Academic freedom: From professional norm to constitutional principle*. Harvard University Press.

Ramlo, S. (2025). Understanding academic freedom among university stakeholders. *Higher Education Policy, 38*(2), 215–232.

Republic of Estonia. (1992). *Constitution of the Republic of Estonia*. Riigi Teataja. https://president.ee/en/republic-of-estonia/the-constitution

Republic of Uzbekistan. (2023). *Constitution of the Republic of Uzbekistan*. Lex.uz. https://lex.uz/docs/6451070

Scott, P. (2006). The academic system and the changing role of universities. *Higher Education, 52*(1), 1–22.

Shore, C. (2010). Beyond the multiversity: Neoliberalism and the rise of the managerial university. *Anthropology Today, 26*(3), 15–20.

Smolentseva, A. (2017). Universal higher education and positional advantage: Soviet legacies and post-Soviet transformations. *Higher Education, 73*(2), 209–226.

UNESCO. (1997). *Recommendation concerning the status of higher-education teaching personnel*.

# YURISPRUDENSIYA

## HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

**2026-YIL 3-SON**

VOLUME 6 / ISSUE 3 / 2026

DOI: https://dx.doi.org 10.51788/tsul.jurisprudence.6.3.

DOI: https://dx.doi.org/10.51788/tsul.jurisprudence